

FORMING THE FEELINGS OF LOVE FOR MUSIC IN STUDENTS THROUGH THE SONGS OF MAKHMUDJON TOJIBOYEV

Shermatov Elyor Mansurjon oglu

Master's Student of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract

This article discusses the formation of students' love for musical art through the songs of Maxmudjon Tojiboyev. The study analyzes the singer's creative heritage, the ideological and artistic content of his songs, and their educational significance. It also highlights the pedagogical opportunities of using Maxmudjon Tojiboyev's repertoire in music education and its role in developing students' aesthetic taste and appreciation of national musical values.

Keywords: Maxmudjon Tojiboyev, musical art, music education, musical upbringing, aesthetic education, song art, music culture, students, national values, artistic taste, music teaching.

Introduction

MAXMUDJON TOJIBOYEVNING QO'SHIQLARI ORQALI O'QUVCHILARDA MUSIQA SAN'ATIGA BO'LGAN MUHABBAT TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH

Shermatov Elyor Mansurjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika institut magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek estradasining taniqli vakili Maxmudjon Tojiboyev qo'shiqlari orqali o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish masalalari yoritilgan. Xonandaning ijodiy merosi, qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy mazmuni hamda tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqa ta'limi jarayonida Maxmudjon Tojiboyev repertuaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va o'quvchilarning estetik didini rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: Maxmudjon Tojiboyev, musiqa sanʼati, musiqiy tarbiya, estetik tarbiya, qoʻshiqchilik sanʼati, musiqa madaniyati, oʻquvchilar,

ФОРМИРОВАНИЕ ЛЮБВИ К МУЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ПЕСНИ МАХМУДЖОНА ТОДЖИБОЕВА

Шерматов Эльор Мансурджон оглу

Магистрант Наманганского государственного педагогического института

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования у учащихся любви к музыкальному искусству посредством песенного творчества Махмуджон Тојибоев. Анализируются творческое наследие исполнителя, идейно-художественное содержание его песен и их воспитательное значение. Также раскрываются педагогические возможности использования репертуара Макмуджона Тојибоева в процессе музыкального образования и его роль в развитии эстетического вкуса учащихся.

Ключевые слова: Макмуджон Тојибоев, музыкальное искусство, музыкальное воспитание, эстетическое воспитание, песенное творчество, музыкальная культура, учащиеся,

Oʻzbekiston musiqa sanʼati tarixida yorqin iz qoldirgan sanʼatkorlardan biri bu — xalq xofizi Maxmudjon Tojiboyevdir. Uning oʻziga xos ovoz tembriga ega boʻlgan, milliylikka boy, ruhiy-estetik tarbiya ahamiyatiga ega qoʻshiqlari nafaqat katta avlod, balki yoshlar qalbida ham chuqur taassurot qoldirmoqda. Ayniqsa, umumtaʼlim maktablarida musiqa madaniyatini rivojlantirish, oʻquvchilarda sanʼatga muhabbat uygʻotish jarayonida Maxmudjon Tojiboyev ijodidan foydalanish taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

1. Maxmudjon Tojiboyev ijodining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari uning asarlarida milliylik va xalqona ruh hukumronlik qilardi: Qoʻshiqlari xalq kuylaridan ilhomlangan, soʻzlari odatda hayotiy, tushunarli va tarbiyaviy mazmunga ega.

Xofizning ovoz madaniyati uning ijrosida ohang va soʻz uygʻunligi yuqori, bu esa oʻquvchilarga musiqiy didni shakllantirishda yordam beradi.

Qo‘shiqlarining ma‘zmoni va g‘oyalari “O‘zbekiston”, “Yurtim”, “Onamga” kabi qo‘shiqlar yurtparvarlik, ona mehriga sadoqat, qadriyatlarga hurmat kabi g‘oyalarni targ‘ib qiladi.

2. Maktabda Maxmudjon Tojiboyev qo‘shiqlarini qo‘llashning pedagogik ahamiyati shundan iboratki:

Musiqada darslarida vokal mashqlar sifatida uning qo‘shiqlarini ijro etish.

Qo‘shiqlar asosida mavzular ochilishi (masalan: “Onamga” qo‘shig‘i orqali mehr-oqibat mavzusi).

Multimediya texnologiyalari yordamida uning ijrolarini eshittirish, tahlil qilish.

Maktabda dars mashg‘ulotlaridan tashqari paytlar ijodiy kechalar, bayram tadbirlarida sahna chiqishlari (Mustaqillik kuni, Ona tili bayrami) va boshqalarda.

O‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘shiq tanlovlari orqali ijrosini targ‘ib qilish.

Musiqada orqali o‘quvchilar qalbida estetik zavq uyg‘otiladi.

Ruhiy tarbiya, milliy g‘urur va yurtga mehr tuyg‘ulari mustahkamlanadi.

3. O‘quvchilarda musiqa san‘atiga muhabbatni shakllantirishda samarali metodlar:

Audio orqali yondashuv Maxmudjon Tojiboyev ijrosidagi qo‘shiqlarni video yozuvlar orqali tahlil qilish.

Yozma va og‘zaki tahlil qo‘shiqlar matni orqali ma‘no, ifoda va g‘oyaviy jihatlarni aniqlash.

Amaliy ijro (xor, duet) tashkil qilish, o‘quvchilar tomonidan ijro etish, sahnalashtirish.

Raqobat asosida yondashuv “Eng yaxshi ijrochi” tanlovi o‘tkazish.

Emotsional ta‘sirga yo‘naltirish Qo‘shiq orqali yurakdan his qilishga undovchi savollar va muhokamalar o‘tkazish.

Maxmudjon Tojiboyev ijodi — yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, musiqa san‘atiga muhabbat uyg‘otishda bebaho vositadir. Uning har bir qo‘shig‘i yurakka yaqin, qalbga chuqur ta‘sir etuvchi g‘oyaviy kuchga ega. Umumta‘lim maktablarida ushbu ijodni to‘g‘ri va tizimli o‘rgatish orqali o‘quvchilarda nafaqat musiqiy bilim, balki estetik dunyoqarash va madaniyatga mehr singdirish mumkin[1. 86-90].

Bugungi globallashtirish davrida yoshlar tarbiyasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularni vatanparvarlik, ma‘naviy tozalik, insoniylik va milliy g‘urur ruhida tarbiyalash uchun san‘at, ayniqsa, musiqa katta vosita bo‘lib

xizmat qiladi. O‘zbekiston xalq artisti Maxmudjon Tojiboyevning qo‘shiqlari ana shu yuksak maqsadlarga xizmat qiladigan, teran g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan asarlardandir. Uning ijodi yosh avlod qalbida ezgu tuyg‘ularni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Maxmudjon Tojiboyev — o‘zbek milliy mumtoz va an‘anaviy musiqa ijodining yorqin namoyandalaridan biridir. Uning qo‘shiqlari musiqa va so‘z uyg‘unligiga boy, yurt va xalq tuyg‘ularini ifoda etuvchi, axloqiy, tarbiyaviy g‘oyalarga yo‘g‘rilgan, Har bir yosh qatlamiga manzur bo‘la oladigan darajada sodda va mazmunli.

1. Qo‘shiqlarning yoshlar tarbiyasiga ta’siri:

Maxmudjon Tojiboyev ijodidagi har bir asar yoshlar qalbiga quyidagicha ta’sir o‘tkazadi:

Uning vatab mavzusidagi qo‘shiqlari Vatanparvarlik ,yurtni sevish, vatan himoyasiga tayyorlik , yurtga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi,

Ona mehrini qadrlash Onaga sadoqat, mehr-oqibat kabi tuyg‘ularni shakllantirishda “Onamga”, “Oyijon” qo‘shiqlari.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya: Kattalarga hurmat, halollik, poklik kabi tuyg‘ularni shakllantirishda “Yaxshilik qiling”, “Inson” nomli qo‘shiqlari o‘zining samarali ekanligini ko‘rsatadi,

Milliy qadriyatlarga hurmat O‘zbekona kuy va so‘zlar orqali xalqchil ruhni uyg‘otish “Toshkentda tong otar”, “Bahor keldi yurtimga” nomli qo‘shiqlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

2. Xofizning asarlarida yoshlar ongiga musiqiy ifoda orqali ta’sir qilish usullari ham mavjud.

Nafis kuylar orqali go‘zallikni anglash.

Qo‘shiqlar ruhiyatga ijobiy ta’sir etadi.

Milliy musiqani tinglash orqali o‘z tarixini va madaniyatini angelaydi.

Uning ijrosiga havas qilgan yoshlar musiqaga qiziqib, o‘zlari ham ijod qilishga intilishadi.

4. Ta’lim tizimida Maxmudjon Tojiboyevning qo‘shiqlardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati juda dolzarb mavzular qatoriga kiradi.

Umumta’lim maktablari, kollej va oliy ta’lim muassasalarida Maxmudjon Tojiboyevning qo‘shiqlarini o‘rgatish yoshlarda estetik did musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqish va hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda juda o‘rinli vosita hisoblanadi.

Xususan dars jarayonlarida asarlarini tahlil qilish (musiqa, ona tili, tarbiya darslarida);

Qo‘shiq tanlovlari va madaniy tadbirlarda ijro etish;

Ijodiy insholar yozish uchun manbaa sifatida berish;

Multimedia vositalari orqali eshittirish, video kliplar orqali ko‘rsatish yoshlar tarbiyasiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi[3. 124-125].

Maxmudjon Tojiboyev ijodi – bu musiqiy asarlar to‘plami emas, balki milliy g‘urur, insoniylik, mehr-oqibat va vatanparvarlik darsidir. Uning qo‘shiqlari yoshlar ongini tarbiyalashda, ularning ma‘naviy-axloqiy barkamolligini shakllantirishda beqiyos o‘rin egallaydi. Shunday san‘atkorlarning merosini keng targ‘ib qilish — bugungi ta‘lim-tarbiya tizimining dolzarb vazifalaridandir.

Musiqa inson qalbining eng nozik tuyg‘ularini aks ettiradigan, milliy qadriyatlarni asrab -avaylash va avloddan-avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir millat o‘ziga xos kuy-qo‘shiqlari, cholg‘u asboblari va ohanglari orqali o‘z madaniyatini namoyon qiladi. Shu bois, musiqa ta‘limi nafaqat san‘atni o‘rgatish, balki milliy o‘zlikni shakllantirishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida qaralishi kerak. Bugungi globallashuv sharoitida ko‘plab yoshlar milliy merosdan uzoqlashib, begona madaniyatlarning ta‘siriga tushib qolmoqda. Ayniqsa, internet va ommaviy axborot vositalari orqali tez tarqalayotgan zamonaviy musiqalar yosh avlod ongiga ta‘sir o‘tkazib, ularning didi va estetik qarashlarini o‘zgartirib yubormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, maktab ta‘limida milliy musiqani targ‘ib qilish, xalq kuy-qo‘shiqlari va an‘anaviy cholg‘ularni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Bu jarayon o‘quvchilarda o‘z milliy qadriyatlariga bo‘lgan hurmatni oshirib, ular qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi. Musiqa darslarida o‘quvchilarga milliy musiqiy merosni o‘rgatish ularning o‘zligini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalq qo‘shiqlari va an‘anaviy kuylar inson ruhiyatiga bevosita ta‘sir qilib, uning ongida o‘z millati, tarixi va madaniyatiga bo‘lgan chuqur bog‘liqlik hissini uyg‘otadi. Musiqa orqali tarbiya olish nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki o‘quvchilarga milliy faxr, tarixiy xotira va o‘z madaniyatini qadrlash kabi fazilatlarni ham singdiradi. Shunday ekan, musiqa ta‘limining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularning milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va o‘zbek musiqasi orqali ularning ichki dunyosini boyitishdan iborat[2. 156-158].

Milliy musiqa faqatgina bir san'at turi emas, balki xalqning ruhiy olamini, tarixiy kechinmalarini va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan beqiyos xazinadir. Har qanday ilmiy izlanish, ayniqsa, ta'lim va tarbiya sohasidagi tadqiqotlar, puxta o'ylangan metodologik asosga ega bo'lishi lozim. Musiqa ta'limi orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirish bo'yicha izlanishlar olib borishda turli metodlar, innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Bu jarayonning samaradorligi, eng avvalo, qanday usullardan foydalanishga bog'liq.

Ushbu tadqiqotda Maxmudjon Tojiboyevning musiqa merosni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun tarixiy-taqqoslama tahlil, kuzatish, eksperiment va interaktiv ta'lim metodlari qo'llanildi. Tarixiy-taqqoslama tahlil orqali o'zbek musiqa madaniyatining avlodan-avlodga o'tish jarayoni, xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'siri va zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganildi. Musiqa inson ongiga qanday ta'sir qilishi va milliy g'ururni shakllantirishda qaysi elementlar muhim ekani ushbu yondashuv asosida tahlil qilindi. Bundan tashqari, o'quvchilarning milliy musiqaga qiziqishini shakllantirish va ularning identifikatsiyasini mustahkamlash maqsadida pedagogik kuzatish va eksperiment metodlaridan foydalanildi[4.340-344].

Tajriba asosida aniqlanishicha, o'quvchilar milliy qo'shiqlarini kuylash yoki milliy cholg'ularni o'rganish jarayonida o'z madaniyatiga nisbatan iliq his-tuyg'ular shakllantiriladi. Shu bois musiqa darslarida interaktiv usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Metodik jihatdan olib qaraganda, faoliyatga asoslangan ta'lim, o'yin metodlari va muammoli ta'lim kabi usullar ham samarali bo'lishi aniqlandi. Misol uchun, o'quvchilar milliy musiqiy merosga oid loyihalar ustida ishlaganda, ularning milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishi ortadi va ijodiy fikrlashi shakllanadi. Ustozlar tomonidan taqlid va drammatizatsiya usullari qo'llanilganda, xalq musiqasining chuqur ma'nosi o'quvchilarga yanada yaqinroq bo'ladi. Barcha metodologik yondashuvlarning umumiy maqsadi bitta – o'quvchilarga musiqa orqali o'z milliy qadriyatlarini anglatish, ularning estetik didini rivojlantirish va o'zlikni tanib bilishiga yordam berishdir. Musiqa darslari shunchaki bir fan emas, balki tarbiya vositasi sifatida qaralishi lozim. Zero, milliy musiqamizni anglash va qadrlash orqali kelajak avlod o'z tarixini, madaniyatini va ajdodlar merosini yanada chuqurroq o'rganadi.

Musiqa inson qalbining aks-sadosi, milliy o'zlikning esa eng kuchli ifodalaridan biridir. Har bir xalqning musiqasi uning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini va

estetik qarashlarini aks ettiradi. Shu sababli, musiqa ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish va ularni o'z madaniyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatishdir. Bu jarayon, ayniqsa, globallasuv davrida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi yoshlar turli madaniyatlarning ta'siriga uchraydi va milliy musiqaning o'quvchilar qalbida mustahkam o'rin egallashi uchun ta'lim jarayoni yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy musiqaga asoslangan ta'lim usullari o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning hissiy-intellektual rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqaning psixologik ta'siri tufayli o'quvchilar milliy qo'shiqlar, kuylar va cholg'ular orqali o'z madaniyatiga nisbatan chuqur mehr uyg'otadi. Xalq musiqasini o'rganish esa o'quvchilarning milliy o'ziga xosligini anglashiga va o'z madaniyatidan faxrlanishiga xizmat qiladi[5.24-28].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Matyakubov Sh. "An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqqa nashriyoti, 2015. – B 86-90.
2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O'zbek musiqasi tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018. – B 156-158.
3. Jo'rayeva.M. "O'zbek mumtoz musiqachilik tarixi" Toshkent, 2017. – 124-125 b.
4. O'zbekiston san'at arboblari ensiklopediyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2010. – B 340-344.
5. Sharq yulduzi jurnali, 2015-yil, №3. – "M.Tojiboyev ijodiy merosi haqida". – B 24-28.